

## **XX ASR BOSHLARIDA OSIYODA SUV RESURLARINING SIYOSIY VA IQTISODIY EKSPLUATATSIYA VOSITASIGA AYLANTIRILISHI: TURKISTON MINTAQASI MISOLIDA**

**Yodgorov Shaxzod**

BuxDU magistranti

**Yuldosheva Bibirajab**

BuxDU dotsenti

[shaxzodyadgorov32@gmail.com](mailto:shaxzodyadgorov32@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada XX asr birinchi choragida Osiyo mamlakatlari, xususan Turkiston mintaqasida sug'orish tizimining shakllanishi, rivojlanishi va siyosiy-iqtisodiy oqibatlari o'rganilgan. Tadqiqot davomida chor Rossiyasi va sovet hokimiyatining irrigatsiya siyosati tarixiy manbalar asosida tahlil qilinib, sug'orish tizimining mahalliy aholi hayotiga, iqtisodiy mustaqillik va ekologik muhitga ta'siri ochib berilgan. Sug'orish faqat texnik infratuzilma emas, balki mustamlakachilik vositasi sifatida ham baholangan.*

**Kalit so'zlar:** *sug'orish tizimi, Turkiston, paxtachilik, siyosiy nazorat, suv resurslari, mustamlakachilik.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматривается формирование и развитие ирригационной системы в странах Азии, особенно в Туркестане, в первой четверти XX века. На основе исторических источников проанализирована политика орошения, проводимая Российской империей и советской властью, и выявлено её воздействие на экономическую независимость, экологическую ситуацию и социальную структуру региона. Орошение представлено не только как техническая система, но и как инструмент колониального управления.*

**Ключевые слова:** *ирригационная система, Туркестан, хлопководство, политический контроль, водные ресурсы, колониализм.*

### **ABSTRACT**

*This article explores the development of the irrigation system in Asian countries, particularly in the Turkestan region, during the first quarter of the 20th century. Based on historical sources, the study analyzes the irrigation policies of Tsarist Russia and the Soviet regime, revealing their impacts on local economic independence, environmental conditions, and social structures. Irrigation is assessed not only as a technical infrastructure but also as a tool of colonial control.*

**Keywords:** *irrigation system, Turkestan, cotton cultivation, political control, water resources, colonialism.*

## **KIRISH**

XX asrning birinchi choragi Osiyo mamlakatlari, xususan Turkiston mintaqasi uchun tub siyosiy-iqtisodiy o'zgarishlar davri bo'ldi. Bu davrda imperiyalararo kurash kuchaygan, mavjud mustamlakachilik tizimlari esa yanada markazlashgan shaklga ega bo'lgan. Ana shunday siyosiy sharoitda agrar sektor, xususan sug'orish tizimi ustidan nazoratni kuchaytirish imperiyaviy hukmronlikning muhim vositasiga aylangan. Sug'orish nafaqat iqtisodiy taraqqiyot, balki siyosiy va ijtimoiy tartibotlarni boshqarish vositasi sifatida ko'rilgan.

Turkiston mintaqasida chor Rossiyasi tomonidan amalga oshirilgan irrigatsion islohotlar, keyinchalik sovet hokimiyatining agrar siyosatiga uzviy bog'langan tarzda davom ettirilgan. Suv resurslari ustidan nazorat, paxtachilik sanoati uchun zarur bo'lgan xomashyoni yetkazib berish siyosati bilan chambarchas aloqador edi. Sug'oriladigan yerlarning kengayishi, irrigatsion infratuzilmalarning qurilishi va mahalliy boshqaruv institutlarining yo'q qilinishi mustamlakachilik siyosatining eng yaqqol namunasiga aylandi.

Ushbu maqolada XX asr birinchi choragida Osiyo mamlakatlari, ayniqsa Turkiston o'lkasida sug'orish tizimining shakllanishi, uning siyosiy va iqtisodiy jihatlari, shuningdek ijtimoiy oqibatlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Sug'orish jarayonlari faqat agrar modernizatsiya vositasi sifatida emas, balki siyosiy mustamlakachilik vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari irrigatsiya tizimi tarixiga ko'proq ko'p qirrali, kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

## **METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI.**

Mazkur tadqiqotda tarixiy-tahliliy va tizimli yondashuv metodlari asos qilib olindi. XX asr birinchi choragida Osiyo mamlakatlari va xususan Turkiston mintaqasida sug'orish tizimining shakllanishi va takomillashuvi, uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari mavjud ilmiy adabiyotlar, statistik materiallar va tarixiy hujjatlar asosida o'rganildi. Tadqiqot davomida alohida e'tibor chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosatining suv resurslariga nisbatan olib borgan siyosiy-texnik strategiyasiga qaratildi.

Tahlil jarayonida Artukmetov va Sheraliyevning «Ekinlarni sug'orish asoslari» asari sug'oriladigan dehqonchilikning agrar xususiyatlari, suv ta'minoti rejimlari va suv resurslaridan foydalanish tamoyillarini tarixiy kontekstda tahlil qilish uchun texnik asos bo'lib xizmat qildi. Doniyorovning «Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi» darsligi sug'orish tizimini jamiyat va tabiat o'rtasidagi tarixiy munosabatlar doirasida tadqiq etish imkonini berdi. Jo'rayev va Sodiqovning «O'zbekiston tarixi: Turkiston chorizmi mustamlakachiligi davrida» asari sug'orish tizimining chor hukumati siyosatida paxtachilik manfaatlariga xizmat qilgan iqtisodiy

vosita sifatidagi shakllanishini ochib berishda asosiy tarixiy manba vazifasini o'tadi. Sodiqov va Usmonovning «O'zbekiston tarixi» darsligi orqali sovet hokimiyati davrida agrar islohotlar, yer-suv munosabatlarining markazlashtirilishi va sug'oriladigan yer maydonining kengayishi jarayonlari tizimli tahlil qilindi.

Tadqiqotda ilgari surilgan fikrlar manbalar asosida tematik tasnif, tarixiy vaqt oralig'ida taqqoslash, mintaqaviy o'ziga xoslikni hisobga olish va kontekstual izohlash metodlari orqali ishlab chiqildi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR.**

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston mintaqasi chor Rossiyasi tomonidan bosib olingach, bu hududdagi suv resurslari ustidan nazoratni kuchaytirish mustamlakachilik siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Suv resurslari bu davrda nafaqat qishloq xo'jaligi taraqqiyoti uchun, balki ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruvning asosiy vositasi sifatida talqin qilindi. Rossiya ma'muriyati, xususan Turkiston general-gubernatorligi siyosati doirasida, mintaqadagi mavjud sug'orish tizimlarini o'zgartirish va suv resurslarini markazlashtirishga alohida e'tibor qaratdi [6].

Avvalgi mahalliy suv boshqaruvchilari — mirablar faoliyati ustidan davlat nazorati kuchaytirildi va suvdan foydalanish masalalarini tartibga soluvchi nizomlar joriy etildi. Ayniqsa, 1870–1880-yillarda qabul qilingan yangi suv nizomlari orqali suvdan foydalanish huquqlari va majburiyatlari qayta belgilandi. Bu siyosat Turkiston viloyatining rasmiy nashrlarida ham keng yoritilgan bo'lib, suvdan foydalanishdagi ijtimoiy tengsizlik va ma'muriy nazoratni mustahkamlash vositasi sifatida tavsiflanadi [7, 1870–1880 yillar].

Sug'orish tizimlarining modernizatsiyasi — kanallar qazilishi, mavjud ariqlarning rekonstruksiya qilinishi va yangi sug'orish inshootlarining qurilishi — tashqi ko'rinishda mintaqaning agrar rivojlanishini ta'minlayotgandek ko'ringan bo'lsa-da, amalda bu harakatlar chor hukumati manfaatlariga, xususan paxtachilikni rivojlantirish strategiyasiga xizmat qilgan. V.V. Barthold ta'kidlaganidek, Turkiston agrar iqtisodiyoti Rossiya sanoatining xom ashyo bazasiga aylantirilgan bo'lib, bu jarayonda suv resurslari ustidan nazorat hal qiluvchi rol o'ynagan [8].

Sug'oriladigan yerlarning kengaytirilishi, asosan, paxta ekinlariga yo'naltirilgani natijasida mahalliy aholi uchun oziq-ovqat xavfsizligi ikkinchi darajaga tushdi. Paxtachilik monokulturasida mahalliy qishloq xo'jalik tizimini qattiq cheklab qo'ydi. Natijada, suv resurslarining taqsimlanishidagi adolatsizliklar va resurslardan foydalanishda paydo bo'lgan ijtimoiy tengsizliklar mahalliy jamiyatda norozilik kayfiyatini kuchaytirdi. 1900–1910-yillarda suv inshootlari ustidan bo'lgan mahalliy

mojarolar va suvdan foydalanish huquqi atrofida nizo va isyonlar bu holatning aniq ifodasi sifatida tarixiy manbalarda qayd etilgan [6].

Sugʻorish siyosati bir tomondan agrar ishlab chiqarishni intensivlashtirishga qaratilgan boʻlsa, boshqa tomondan mintaqadagi siyosiy hokimiyat vertikalini mustahkamlash vositasi boʻlib xizmat qilgan [2,122–126]. Suv inshootlari – kanal, ariq, drenaj tizimlari – asosiy iqtisodiy va siyosiy resursga aylangani bois, ularning qurilishi, taʼmiri va nazorati ustidan faqat markazlashgan hokimiyat egalik qilgan. Bu mahalliy aholining tarixiy sugʻorish tajribalarini yoʻqolishiga, iqtisodiy mustaqillikni kamayishiga olib kelgan.

Chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosati doirasida suvdan foydalanish masalasi strategik tus olgan. «Dehqon xoʻjaliklari toʻgʻrisida»gi dastlabki qarorlar va irrigatsion hududlarni toʻgʻridan-toʻgʻri harbiy muhofaza ostiga olish orqali Rossiya paxtachilik sanoatini toʻliq sugʻoriladigan xomashyo bazasi bilan taʼminlashni koʻzlagan. Turkiston mintaqasida 1914-yilga kelib 1,8 million gektar sugʻoriladigan yerlar mavjud boʻlganini, 1924-yilga kelib esa bu koʻrsatkich 2,4 million gektardan oshganini koʻrsatadilar [1,4]. Bu sugʻorish hajmidagi keskin oʻsish mintaqaning suv resurslarini haddan ortiq ekspluatatsiya qilish bilan bogʻliq boʻlgan.

Joʻrayev va Sodiqov tomonidan qayd etilishicha, bu oʻsish ijobiy iqtisodiy samaralardan tashqari salbiy ijtimoiy oqibatlarini ham yuzaga keltirdi. Paxtachilikni kengaytirish jarayoni oqibatida oddiy dehqonlar suv taqsimotidan chetlatildi, suv infratuzilmalari ustidan davlat nazorati kuchaydi, natijada tabiiy resurslar ustidan mahalliy boshqaruv susaytirildi [3,128–130]. Bu esa ijtimoiy norozilik va protest harakatlarining kuchayishiga sabab boʻlgan. Xususan, Amudaryo va Sirdaryo havzalaridagi suv resurslarining nazorat ostiga olinishi Turkiston dehqonchilik tarixidagi tub burilishlardan biri sifatida qaraladi.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida bu sugʻorish siyosati davom ettirilib, suv resurslaridan foydalanish davlat monopoliya doirasiga tushgan. Bu esa nafaqat mahalliy aholi manfaatlariga ziddiy edi, balki ekologik muammolarning, xususan keyinchalik Orol halokati deb atalgan fojia boshlanish nuqtasi ham hisoblanadi [4,102–105]. Sovet hukumati bu siyosatni «melioratsiya» yoki «agrar modernizatsiya» deb atagan boʻlsa-da, u amalda mahalliy ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelgan.

Doniyorov Markaziy Osiyo tarixshunosligida bu jarayonlar «suv orqali siyosiy va iqtisodiy ekspluatatsiya» konsepsiyasi bilan izohlanishini aytadi. Suv faqat agrar ishlab chiqarish vositasi emas, balki siyosiy boshqaruvning asosiy elementi sifatida ishlatilgan [2,127–130]. Mahalliy boshqaruv institutlari yoʻq qilingan, suv ishlari

bo'yicha mutaxassislar Rossiyadan yuborilgan, buning natijasida mintaqaviy bilim va amaliy tajribaning davomiyligi uzilgan.

Shuningdek, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chor va sovet davrlarida amalga oshirilgan sug'orish siyosati faqat ishlab chiqarish hajmini oshirishga emas, balki transport-logistika infratuzilmalarini rivojlantirishga ham xizmat qilgan. Kanal va daryo yo'llarining qurilishi orqali xomashyo – paxta, sholi, meva va sabzavot mahsulotlari – markaziy Rossiyaga yoki eksportga chiqarilgan [3,131–133].

XX asr birinchi choragida sug'orish tizimining o'zgarishi Osiyo va xususan Turkiston mintaqasida iqtisodiy markazlashuv, siyosiy ekspluatatsiya, ijtimoiy ajratilish va ekologik muvozanatsizlik jarayonlarini kuchaytirgan. Bu davrda suv faqat agrar resurs emas, balki siyosiy kuch manbai sifatida ham talqin etilgan.

XX asrning birinchi choragi Osiyo mamlakatlari, ayniqsa Turkiston mintaqasi uchun keskin agrar o'zgarishlar davri bo'ldi. Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, bu davrda sug'orish tizimi siyosiy va iqtisodiy bosim vositasiga aylantirilgan bo'lib, u o'z mohiyatida nafaqat agrar ishlab chiqarishni tartibga solish, balki mustamlakachilik tuzumining hukmronligini mustahkamlash vositasi bo'lib xizmat qilgan. Mazkur bo'limda mazkur jarayonlarning mintaqaviy xususiyatlari, tarixiy dinamikasi va hozirgi tarixiy baholanishi muhokama qilinadi.

Birinchidan, sug'orish tizimining rivoji Osiyodagi dehqonchilik tarixida o'ziga xos tarixiy burilish bo'ldi. Chor Rossiyasi tomonidan amalga oshirilgan keng ko'lamli irrigatsion islohotlar, mintaqani xomashyo bazasiga aylantirish strategiyasining bir bo'lagi sifatida tushuniladi [3,128]. Bu islohotlar texnikaviy nuqtai nazardan samarali bo'lsa-da, ularning asosiy maqsadi mahalliy ehtiyojlarni emas, balki imperiya markazi talablarini qondirish edi.

Ikkinchidan, irrigatsiya siyosati orqali hukumat mahalliy aholi ustidan nazoratni kuchaytirdi. Suv resurslari va sug'orish inshootlari strategik vosita sifatida ishlatildi, mahalliy suv bo'yicha boshqaruv institutlari yo'q qilindi, o'rniga rus muhandislari va harbiy vakillar tayinlandi [2,127–128]. Bu esa mahalliy bilimlar va tajriba davomiyligining uzilishiga olib keldi. Tabiiy resurslar ustidan ijtimoiy egalik o'rniga, siyosiy va ma'muriy egalik qaror topdi.

Uchinchidan, sug'orish tizimining kuchaytirilishi nafaqat iqtisodiy, balki ekologik muammolarga ham olib keldi. Orolbo'yi hududlarining tobora kuchaygan suvga bog'liqligi, keyinchalik ekologik falokatning zamini bo'ldi. Sovet davrida bu jarayon yanada kuchaygani bilan, aynan chor davrida boshlangan irrigatsion kengayish bu jarayonning ildizidir [4,103–105].

Shuningdek, sug'orish tizimi orqali olib borilgan islohotlar aholining ijtimoiy tuzilmasini ham o'zgartirdi. Mahalliy dehqonlar o'z yeridan mahrum bo'lib,

ko'pchilik ishchi sifatida ishlashga majbur bo'ldi. Irrigatsiya inshootlarida ishlovchilar ko'pincha mavsumiy, to'lovsiz yoki zo'ravonlik bilan safarbar qilingan jismoniy mehnat kuchi edi. Bu holat ijtimoiy adolatsizlikni kuchaytirgan, jamiyatdagi tabaqalanish va noroziliklarni oshirgan [1,4].

Sug'orish tizimining kengayishi Turkistonda iqtisodiy mustamlakachilik modelining asosiy tayanchiga aylangan. Rossiya imperiyasi paxtani «oq oltin» deb atab, uni sanoat ishlab chiqarishining strategik asosi sifatida ko'rgan. Shu bois irrigatsion kengayish paxtachilik bilan chambarchas bog'langan holda olib borilgan [3,129–130]. Bu esa Turkiston mintaqasini bir tomonlama xomashyo bazasiga aylantirdi va diversifikatsiyalashuv imkoniyatlarini cheklab qo'ydi.

Tarixshunoslik nuqtai nazaridan qaralganda, Doniyorov ta'kidlaganidek, irrigatsiya tizimining mintaqadagi siyosiy va madaniy oqibatlarini hanuzgacha chuqur o'rganilmoqda. Unga ko'ra, bu jarayon faqat iqtisodiy tizimni emas, balki mentalitet, mulkchilik va tabiiy resurslarga nisbatan ijtimoiy munosabatni ham keskin o'zgartirgan [2,130].

Tadqiqot natijalariga ko'ra, sug'orish tizimi Osiyo mintaqasida bir vaqtning o'zida texnik taraqqiyot timsoli va siyosiy asorat vositasi bo'lib xizmat qilgan. Bu ikkiyoqlama holat hozirgi tarixiy baholashlarda ham aks etadi: bir tomondan, agrar islohotlar natijasida yangi yerlar o'zlashtirildi, oziq-ovqat ishlab chiqarish ortdi; boshqa tomondan esa, bu jarayonlar mahalliy suverenitetni chekladi, iqtisodiy mustaqillikni yo'qqa chiqardi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, sug'orish tizimi tarixini faqat agrar modernizatsiya sifatida emas, balki mustamlakachilik kontekstida siyosiy va ijtimoiy hodisa sifatida baholash zarur. Bu yondashuv mintaqaviy tarixiy adolatni tiklash va mustaqil tarixiy ongini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **XULOSA.**

XX asrning birinchi choragida Osiyo mamlakatlari va, ayniqsa, Turkiston mintaqasida sug'orish tizimi keskin siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar ta'sirida shakllandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, chor Rossiyasi va keyinchalik sovet hokimiyati tomonidan olib borilgan irrigatsion siyosat agrar modernizatsiya niqobi ostida mintaqaviy mustamlakachilik siyosatini mustahkamlashga xizmat qilgan. Sug'orish inshootlari faqat suv ta'minoti vositasi emas, balki resurslar ustidan siyosiy nazorat va mahalliy boshqaruvni yo'q qilish mexanizmining ajralmas bo'lagiga aylangan.

Mahalliy aholi suv resurslaridan foydalanish va ularni boshqarish jarayonidan chetlatilgan, natijada ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik chuqurlashgan. Paxtachilikka asoslangan irrigatsiya siyosati esa Turkistonni bir tomonlama xomashyo bazasiga

aylantirib, iqtisodiy diversifikatsiyani cheklagan. Ekologik muammolarning boshlanishi ham aynan shu davr irrigatsion siyosatining oqibati sifatida baholanishi mumkin. Tarixshunoslik nuqtai nazaridan olib qaralganda, sug'orish tizimining o'rganilishi faqat texnik muammolarni emas, balki siyosiy ekspluatatsiya, madaniy transformatsiya va ekologik tanazzul jarayonlarini anglash uchun ham muhimdir. Bu yondashuv mintaqaviy tarixga nisbatan yanada adolatli, chuqur va tahliliy yondashishni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sug'orish tizimi tarixini o'rganish orqali biz nafaqat o'tmishdagi siyosiy va iqtisodiy jarayonlarni, balki hozirgi ekologik inqiroz va ijtimoiy izdan chiqishlar ildizlarini ham anglashimiz mumkin. Shu bois mazkur mavzuni yanada keng qamrovda, manbalar va fanlararo yondashuvlar asosida o'rganish dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda.

### **ADABIYOTLAR**

1. Artukmetov, Z.A., and H.Sh. Sheraliyev. *Ekinlarni sug'orish asoslari*. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007.
2. Doniyorov, A.X. *Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi*. Toshkent: NIF MSH, 2020.
3. Jo'rayev, N., and H. Sodiqov. *O'zbekiston tarixi: Turkiston chorizm mustamlakachiligi davrida*. 1-kitob. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2011.
4. Usmonov, Q., M. Sodiqov, and S. Burxonova. *O'zbekiston tarixi*. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2006.
5. Ochilov, Ulugbek Sayfulloevich. "Naturalistic Images In The Novel "Sister Carrie" By The American Writer Theodore Dreiser." *Scientific reports of Bukhara State University* 4.3 (2020): 179-183.
6. Nalivkin V.P. *Ocherki byta tyzemnogo naseleniya Ferganskoy doliny*. — SPb., 1911.
7. *Turkiston viloyatining gazet*i. 1870–1880 yillar sonlari. — Toshkent.
8. Barthold V.V. *Ocherki po istorii Sredney Azii*. — Moskva: Nauka, 1963.
9. Yavmutov D. S., Yuldosheva B. M. Issues of assessment of the natural resource potential of the region for recreational purposes //Modern Science and Research. — 2025. — T. 4. — №. 2. — C. 77-86.
10. Yuldosheva B. retracted: The current state of green spaces and their historical changes in Bukhara City //BIO Web of Conferences. — EDP Sciences, 2024. — T. 84. — C. 01039.